

QADIMGI DUNYO XALQLARI MIFOLOGIYASIDA AYOL
ILOHALARI HAQIDA MULOHAZALAR

Abduraimov Dilshodjon Abduraim o'g'li

University of Business and Science

Tillar kafedrası o'qituvchisi

dilshodjonabduraimov8@gmail.com

+998937259103

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida (asotir-u miflarida) ayol ilohalari (ma'budalari) haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan bo'lib, bunda qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasidagi ayol ilohalarining (ma'budalarining) o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy qarashlarni, mulohazalarni qadimgi dunyo tarixi hamda qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasidagi manbalarga, ilmiy faktlarga (ma'lumotlarga) tayangan holda ayol ilohalardagi umumiy jihatlari haqidagi insoniyatning ilk iptidoiy diniy qarashlari va tasavvurlari orqali mifologik qarashlarning shakllanishi berishi haqida ilmiy mulohazalarni ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zi: Qadimgi dunyo tarixi. Qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasi. Asotir-u miflar. Ayol ilohalar (ma'budalari) haqida ilmiy qarashlar...

REFLECTIONS ON FEMALE DEITIES IN THE
MYTHOLOGY OF THE ANCIENT WORLD PEOPLES

Abduraimov Dilshodjon Abduraim of son

Lecturer, Department of Languages,

University of Business and Science

dilshodjonabduraimov8@gmail.com

+998937259103

Annotation: This article presents scientific reflections on female deities (goddesses) in the mythology of the ancient world peoples (asotir-and-myths), in which we will consider scientific views on the specific characteristics of female deities (goddesses) in the mythology of the ancient world peoples, reflections on the formation of mythological views through the first primitive religious views and imaginations of humanity about the common aspects of female deities, based on sources and scientific facts (information) in the history of the ancient world and the mythology of the ancient world peoples.

Key words: History of the ancient world. Mythology of the ancient world peoples. Asotir-and-myths. Scientific views on female deities...

РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЖЕНСКИХ БОЖЕСТВАХ
В МИФОЛОГИИ НАРОДОВ ДРЕВНЕГО МИРА

Абдураимов Дилшоджон Абдураим оглы
Университет бизнеса и науки, Кафедра языков,
Преподаватель
dilshodjonabduraimov8@gmail.com
+998937259103

Аннотация: В данной статье представлены научные наблюдения о женских божествах (богинях) в мифологии народов Древнего мира (мифы Асотыр-у). В статье рассматриваются научные взгляды на особенности женских божеств (богинь) в мифологии народов Древнего мира, а также формирование мифологических воззрений через ранние религиозные представления и представления человечества об общих чертах женских божеств, основанные на источниках, научных фактах (информации) из истории Древнего мира и мифологии народов Древнего мира.

Ключевые слова: История Древнего мира. Мифология народов Древнего мира. Мифы Асотыр-у. Научные взгляды на женских божеств (богинь)...

KIRISH

Insoniyat tamaddunining (sivilizatiyasining) ilk davrdan boshlab, odamzod ilk iptidoyi e'tiqod na'munalarni yaratgan bo'lib, bunda eng qadimgi davr kishilari o'zlari yashayotgan hayotdan tashqari yana o'zga bir olam borligiga hamda buni amalga oshiradigan ilohiy kuch, kuch borligiga ishonishgan hamda unga e'tiqod qilishgan bunday tarixiy jarayon miloddan avvalgi VI-III ming yilliklarda insoniyat tamaddunining vujudga kelish jarayoni yuz bergan tarixiy joylarda va makonlarda (Asosan, bu jarayon birinchi navbatda Qadimgi Sharqda: Misr va Misopomiyada vujudga kelgan edi...) : Qadimgi Misr, Qadimgi Misopotomiya, Qadimgi Hindiston va Markaziy Osiyoda, Qadimgi Yunon mulkida hamda Qadimgi Rimda vujudga kelgan edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Endi suhbatimizni eng qadimgi dunyo xalqlarining Oliy kuchga bo'lgan ilk iptidoyi ishonch na'munasi bo'lgan hamda keyinchalik uning buzilgan shakli bo'lgan hamda iptidoyi diniy tasavvur mevasi bo'lgan miflar va asotirlarga asos bo'lib xizmat qilgan...

ASOSIY QISM

Endi suhbatimizning eng muhimi jihati bo'lgan qadimgi dunyo mifologiyasida (ilk diniy tasavvur va qarashlarning buzilgan shakli...) ayol ilohalarining (ma'budalarining) tutgan muhim o'ziga xos xususiyatlari hamda rolini haqida bilganlarimizni qo'ldan kelguncha baholi qudrat o'rtoqlashamiz.... Bunda dunyo mifologiyasida (Qadimgi Misr, Qadimgi Misopotomiya, Qadimgi Hindiston va Markaziy Osiyo, Qadimgi yunon-rim asotir-u miflari hisoblanadi...) ayol ilohalar

(ma'budalar) haqida afsonalar, asotir, miflar (ilk diniy qarashlari va tasavvurlar mahsuli hamda ilk diniy qarashlarining buzilgan shakli...) yaratilgan bo'lib, bunda ayol ilohalar haqida ilk qarashlar dastaavval Qadimgi Sharq xalqlarida (Qadimgi Misr va Qadimgi Misopotomiyada...), Qadimgi Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlarida, Qadimgi Yunon-Rim xalqlari ilk diniy qarashlarida mavjud bo'lib, mana shu sanalib o'tilgan xalqlari ilk diniy qarashlarida yaratilib, keyinchalik shu xalqlarining xalq og'zaki ijodlarida: asotir, afsona, mifologiyasi fonida namoyon bo'la boshlagan hamda mana shu xalqlarining ilk diniy qarashlarida hamda mifologiyasida erkak ilohlar (ma'budlar) bilan birgalikda nomlari tilga olina boshlanganligi hamda ular bilan birgalikda faoliyat yuritganligi haqida qadimgi dunyo mifologiyasi tarixda faktlar kelirilganligi ma'lumdir....[1] Qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida bu ayol ilohalari (ma'budalari) Isida (Izeda) va Xatxor (Qadimgi Misrda) Ishtar va Ea (Qadimgi Misopotomiya xalqlarida), Kaal-Durga, Sarasvati (Qadimgi Hindlarda), Anaxita, Umay ona (Umay, Umey, Imay, Umat, Ubat, Omah, Umah, Umaji, Omaj, Hommu, Humu, Umu, Imi, Omisi, Umay Eje...) (Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida), Afina, Artimeda, Afrodita, Demetra, Gera, Femeda (Qadimgi Yunon xalqlari mifologiyasida...), Diana, Yustitsiya, Fortuna, Furiya (Qadimgi Rimda) shu nomlar bilan nomlangan ayol ilohalar (ma'budalar) haqida qadimgi dunyo mifologiyasi orqali ma'lumotlar keltirilgan.... Ushbu nomlari keltirilgan ayol ilohalar (ma'budalar) qadimgi dunyo mifologiyasida (ilk insoniyat diniy qarashlari va tasavvurlarda...) hayotining u yoki bu sohalarini boshqarishgan deya tasavvur qilishgan... Endi mulohazalarimizning yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratsak, bunda nega qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida ayol ilohalarining (ma'budalarilarining) keltirilgan degan savol tug'ilishi mumkin bo'ladi... Bu savolga biz javob sifatida qadimgi dunyo xalqlari tarixi, mifologiyasi tarixiga suyangan holda aynan ayol ilohalarining qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida kelishiga sabab sifatida insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki davrida urug'-qabilani boshqarishni dastlab ayollar boshqarishgan davri -Matriarxatizm (Ayol yoki ona humronligi) (Tahminan, So'ngi tosh davri - miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklarida hamda Mezolit davri - o'rta tosh asri - miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklardan to bronza davrigacha miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalarigacha ...)[2] davri ta'sirida bo'lganligi jihatdan qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida ayol ilohalarining (ma'budalarining) erkak ilohlar (ma'budlar) qatoridan o'rin egallashga sabab bo'lganligi haqida ilmiy qarashlarning ham o'z asosi bordir deb o'ylaymiz... Keyinchalik bora-bora ayollarning urug'-qabilani moddiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash hamda uni tashqi dushmanlardan himoya qilish zimmasini ayollarning yelkalaridan olganidan keyin (miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalarida - Bronza davrida..) erkaklarning hukmronligi tuzumi - Patriarxatizmga (ota yoki erkaklarning hukmronligi tuzumi..) o'tganidan ham keyin qadim o'tmish davrida ham jamiyatda ayollarning bu ta'sirlari saqlanib qolganligi haqidagi qarashlarida ham ayni jon bor deb o'ylashimiz

mumkin...[3] Qadimigi dunyo xalqlari mifologiyasidagi bu nomlari keltirilgan ayol ilohalar qadimigi xalqlarining ilk diniy tasavvur va qarashlarda ular uchun hayotning muhim jihatlarni boshqarishi haqidagi mifologik qarashlari va tasavvurlarini yaratishgan... Masalan, Qadimigi Misr mifologiyasida Isida (Izeda) ba'zi manbalarda yer osti saltanati hukmdori-ilohi Osirisning singlisi sifatida kelsa, ba'zi manbalarda esa uning xotini sifatida keltirilgan ayol iloha bo'lib, rivoyatlarda aytilishicha, Isida (Izeda) yovuzlik va qudrat ilohasi bo'lganligi hamda qadimigi misrliklar undan rosayam qo'rqanligi hamda unga atab qurbonliklar o'tkazganliklari haqida ilmiy farazlar keltirilgan... Xatxor esa sevgi va muhabbat ilohasi sifatida keltirilib, qadimigi misrliklar ning mifologik qarashlarida hayotda odamlar orasida sevgi-muhabbat tuyg'usini boshqarib turganligi haqida ham ilmiy qarashlar mavjuddir... Shuningdek, Qadimigi Misopotomiya xalqlari mifologiyasida esa ayol iloha Ishtar ham shu xalqlar uchun urush va g'alaba, qudrat ma'budasi sifatida ulug'lanishi, shuningdek, agarda urushda g'alaba qozonilsa, qaysidir jihat bilan iloha Ishtarni hursand qildik, aksi bo'lsa, qaysidir jihat bilan bu ilohani g'azblantirdik degan mifologik qarashlari bo'lganligi hamda yana bir ayol iloha Ea yorug'lik ma'budasi sifatida ulug'lanib, ular uchun qurbonlik ham qolinganligi haqida ilmiy mulohazalar ham mavjuddir... Bundan tashqari, Qadimigi hindlar mifologiyasida esa Kaal-Durga va Sarasvati degan ayol ilohalar (ma'budalari) ularning iptidoyi qarashlari va tasavvurlari orqali mavjud bo'lib, biri (Kaal-Durga)ni qudrat ma'budi Shivaning qalig'i (xotini) sifatida afsonaviy yo'lbarsning ustida o'tirgan holda qo'llarida eri iloh Shivaning uch ayrili nayzasi hamda turli mo'jizakor jangovar qurollar bilan qurollangan holda tasavvur etganligini hamda uni dunyoning tartibini saqlovchi iloha sifatida tasavvur qilishgan hamda yana bir iloha Sarasvati degan ayol ma'budasi aql-idrok, musiqa, san'at, go'zallik ilohasi sifatida ularning iptidoyi qarashlari va tasavvurlarida hayotning mana shu sohalarini boshqarganligi hamda iloha Sarasvati ayollarning ilohasi sifatida ham keltirilganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz... Shuningdek, ushbu ayol ilohalarining (ma'budalarining) misolida ushbu qadimigi xalqlarining iptidoyi diniy qarashlarida va tasavvurlarida qadimi Matriarxatizm tuzumi qarashlari hali ham mavjud va hukmron bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Bundan tashqari, Markaziy Osiyo xalqlarining ilk iptidoyi diniy qarashlari va tasavvurlardagi mifologik qarashlarida esa ayol iloha Umay ona (Umma, Umey, Ubat, Imi, Imay, Hammu, Umay Eje ...) haqida ko'plab afsona va asotir (miflar) yaratilgan bo'lib, ularda asosan, iloha Umayning onalik xususiyatga ega bo'lgan ma'buda sifatida Markaziy Osiyo xalqlarida, eng asosiysi, qadimigi turkiy xalqlarning onalik xususiyatiga ega bo'lgan bu ilohasi onalarning, homilador ayollarning, tug'ilgan chaqaloqlarning himoyachsi hamda homiyisi sifatida ularni turli xil yovuz kuchlardan asrovchi iloha bo'lganligini, shuningdek, qadimigi Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida iloha Umay onani quyidagicha tasavvur etishgan hamda bunda iloha Umay onaning uzun oppoq sochlari bo'lganligi, uning homilador ayollarni, onalarni,

bolalarni domio himoya qiluvchi, asosan, afsonaviy qush Humoning ustida uchib yurib, u kelgan yerlardagi odamlarning xonadonlarida o'g'il-qizlarining ko'plab tug'ilishi yoki uning aksi sifatida iloha Umay Eje (ona)ning tashrif buyurmagan xonadonlarda eda o'g'il-qizlarning tug'lishi kamayib ketishi yoki bo'lmasam, umuman, tug'ilmasligi haqidagi afsonaviy va mifologik qarashlarini yaratilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... [4] Mana shu jihatdan ham qadimigi turkiy xalqlarning iptidoyi diniy qarashlari va tasavvurlaridagi mifologik obraz bo'lmish iloha Umay Eje (ona)ning mana shu xususiyati bilan Qadimgi hindlarning onalik ma'budasi Kaal-Durga bilan bir ekanligi ularning har ikkalasda ham onalik xususiyati mavjud ekanligi jihati bilan ham o'xshashdir...

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shuningdek qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari iloha Umay Eje (onani) uzun oppoq sochlaridan tashqari uchta shohli qilib ham tasavvur etishgan hamda iloha Umay Eje (ona) haqida mifologik qarashlari uzoq qadim vaqtdan to qadimgi Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari hamda qadimgi turkiylarning ilk iptidoyi diniy qarashlari va tasavvurlarida mavjud bo'lib, milodiy VI-VIII asrlarigacha (Buyuk Turk Xoqonligi davrigacha...) mavjud bo'lganligi haqida ilmiy-nazariy qarashlarini qadimiy turkiy toshbitiklarda (**O'rxun-Yenisey** yodgorliklarida...) ham ma'lumot sifatida kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Shuningdek, Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida ayol iloha **Anaxita** yorug'lik va ezgulik ma'budasi bo'lganligini haqida Qadimgi Markaziy Osiyo mintaqasida miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan Zardushtiylik va otashparastlik dinida uning nomi keltirilib kelganligi haqida ma'lumot uchraydi... Shuningdek, Qadimgi yunon-rim asotir-u miflarida bayon qilingan hamda ma'lumot keltirilgan ayol ilohalar (ma'budalar) haqida ilmiy mulohazamizni davom ettiradigan bo'lsak, bunda Qadimgi Yunoniston xalqlarining ilk iptidoyi diniy qarashlari va tasavvurlaridan vujudga kelgan mifologiyasidagi momoqoldiroq va yashin ilohi, Olimp ilohlari (ma'budlari) hukmdori **Zevsning** xotini **Gera** hamda qizlari urush va g'alaba ilohasi **Afina**, go'zallik ilohasi Afrodita, dehqonchilik ilohasi **Artimeda**, shuningdek, o'rmon va ovchilik ilohasi **Demetra**, adolat va qonun ilohasi **Femeda** kabi ayol ilohalarining qadimgi yunon mifologik qarashlarida hayotning u yoki bu jabhalarini boshqargaligi haqida ilmiy ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin bo'ladi.... Qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida ayol ilohalarining (ma'budalarining) qadimgi xalqlarning asotir-u miflarida kelishligiga hamda ularning ko'pchiligi o'sha xalqlarning ilk iptidoyi diniy qarashlari hamda tasavvurlaridan kelib chiqib, vazifasi jihatdan ham bir-birlariga deyarli mazmunan o'xshashligi jihatdan ham bir-birlariga mazmunan yaqinligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Masalan, Qadimgi hindlar mifologiyasidagi ayol ilohalardan (ma'budalaridan) biri bo'lgan iloha Kaal-Durga hamda qadimgi turkiylarning hamda Markaziy Osiyo mintaqasida yashgan qadimiy ajdodlarimizning ilk iptidoyi diniy qarashlari hamda tasavvurlaridan vujudga kelgan

Markaziy Osiyo xalqlari (Shu jumladan, asosan, turkiy xalqlarning asotir-u miflaridagi onalik sifatlariga ega bo'lgan ayol iloha **Umay onaning (Umay Eje, Imay, Ummu, Umu, Uybat yoki Ubat, Imi...)** [V] mana shu ikki qadimiy xalqlarning ilk diniy qarashlarida hamda tasavvurlarda paydo bo'lgan holda mazmunan bir-biriga judayam yaqinligi jihatidan ham anchagina qiziqdir (Balki, bu ikki qadimiy mintaqa aholisi eng qadimgi davrlarda ham madaniy-ma'naviy aloqalarining natijasi yoki bo'lmasa, insoniyatning eng qadimgi rivojlanishi (sivilizatiyasidagi) ayol kishi hukmronlik qilgan ilk ijtimoiy-siyosiy tuzum - Matriarxatizmning silsilasi ham bo'lishi mumkin, albatta... Chunki butun insoniyat o'zining ilk sivilizatiyasida (tammadunida) ayol kishi hukmronlik qilgan ilk ijtimoiy-siyosiy tuzum bo'lmish Matriarxatizmni boshidan kechirganligi qadimgi dunyo xalqlari tarixidan ma'lumdir... Balki eng qadimgi davrlarda ham jamiyatda ayollarga nisbatan yuksak hurmat belgisi (Matriarxatizmdan qolib ketgan an'ana yoki odat sifatida yoki bo'lmasam, shu qadimiy tuzumning ta'siri ham bo'lganligi aniqdir...) Shuning uchun ham qadimgi hindlarning mifologiyasidagi ayol ilohalardan **Kaal-Durga** va **Sarasvati** ilohalari (ma'budalari) kabi iloha Umay onaning ham bu ayol ilohalar bilan vazifasi jihatdan mazmunan yaqinligini ko'rishimiz mumkin...

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytmog'imiz lozimki, qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasida ayol ilohalarining (ma'budalarining) qadimgi xalqlarning asotir-u miflarida kelishligiga hamda ularning ko'pchiligi o'sha xalqlarning ilk iptidoyi diniy qarashlari hamda tasavvurlaridan kelib chiqib, vazifasi jihatdan ham bir-birlariga deyarli mazmunan o'xshashligi jihatdan ham bir-birlariga mazmunan yaqinligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Masalan, Qadimgi hindlar mifologiyasidagi ayol ilohalardan (ma'budalaridan) biri bo'lgan iloha Kaal-Durga hamda qadimgi turkiylarning hamda Markaziy Osiyo mintaqasida yashgan qadimiy ajdodlarimizning ilk iptidoyi diniy qarashlari hamda tasavvurlaridan vujudga kelgan Markaziy Osiyo xalqlari (Shu jumladan, asosan, turkiy xalqlarning asotir-u miflaridagi onalik sifatlariga ega bo'lgan ayol iloha **Umay onaning (Umay Eje, Imay, Ummu, Umu, Uybat yoki Ubat, Imi...)** mana shu ikki qadimiy xalqlarning ilk diniy qarashlarida hamda tasavvurlarda paydo bo'lgan holda mazmunan bir-biriga judayam yaqinligi jihatidan ham anchagina qiziqdir (Balki, bu ikki qadimiy mintaqa aholisi eng qadimgi davrlarda ham madaniy-ma'naviy aloqalarining natijasi yoki bo'lmasa, insoniyatning eng qadimgi rivojlanishi (sivilizatiyasidagi) ayol kishi hukmronlik qilgan ilk ijtimoiy-siyosiy tuzum - Matriarxatizmning silsilasi ham bo'lishi mumkin, albatta... Chunki butun insoniyat o'zining ilk sivilizatiyasida (tammadunida) ayol kishi hukmronlik qilgan ilk ijtimoiy-siyosiy tuzum bo'lmish Matriarxatizmni boshidan kechirganligi qadimgi dunyo xalqlari tarixidan ma'lumdir... Balki eng qadimgi davrlarda ham jamiyatda ayollarga nisbatan yuksak hurmat belgisi (Matriarxatizmdan qolib ketgan

an'ana yoki odat sifatida yoki bo'lmasam, shu qadimiy tuzumning ta'siri ham... Shuningdek, Qadimgi Rim xalqlari mifologiyasida aynan qadimgi yunon xalqlari mifologiyasining aynan o'zi ekanligini hamda faqatgina ilohlari va ilohalarining nomlari o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Masalan, **Zevs-Yupter, Poseydon-Neptun, Ares-Mars, Germes-Merkuriy, Femida-Yustitsiya, Artimeda-Diana**, shuningdek, faqatgina Qadimgi Rim xalqlari mifologiyasida nomi keltirilgan taqdir ilohasi Fortuna hamda qasos va intiqom ilohasi Furiyalar haqida ilmiy ma'lumotlar borligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Umuman olganda qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasidagi ayol ilohalarining hamda ularning hayotdagi (Qadimgi dunyo xalqlari mifologiyasidagi ilk iptidoyi qarashlar va tasavvurlarning mahsuli bo'lmish qadimiy asotir-u miflarda kelishi...) vazifasi jihatdan o'xshab ketishligi haqida ilmiy ma'lumotlar va ularning umumiy xususiyati mavjud ekanligi haqida mulohazalarimizni tugatamiz....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:
(REFERENSEC)**

1. ↑ “Qadimgi yunon afsonalari va rivoyatlari” H.A.Kun. rus tilidan Poshali Usmon va Fazliddin Shukur tarjimasini. Zarafshon nashriyoti. Samarqand 2005. 1-qism 5-bet..
2. ↑ “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent..
3. ↑ Аврелий Августин. О граде Божьем. XVIII 8...
4. ↑ Psevdo-Apollodor. Mifologicheskaya biblioteka I 9, 16; Valeriy Flakk. Argonavtika I 394..
5. ↑ Gigin. Astronomiya II 14, 3..
6. ↑ Burckhardt. Metion 1 // Paulys Realencyclopädie der classischen Altertumswissenschaft. — 1932. — Bd. XV, 2. — Kol. 1408—1409...
7. ↑ Gigin. Mifi. Vvedenie 6..
8. ↑ Psevdo-Apollodor. Mifologicheskaya biblioteka II 5, 6..

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.til va adabiyot ta'limi.uz
4. www.Scoups
5. [Https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https://ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https://www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https://jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https://www.Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)